

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**RAXIMJONOVA NARGIZAXON RAXIMJONOVNA**

**DAVOMLI VA UZOQQA CHO‘ZILGAN JINOYATLARNI  
KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Raximjonova Nargizaxon Raximjonovna**

Davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari..... 3

**Рахимжонова Наргизахон Рахимжоновна**

Вопросы квалификации продолжаемых и длящихся преступлений..... 23

**Rakhimjonova Nargizakhon Rakhimjonovna**

Issues of qualifying continuing and prolonged crimes..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**RAXIMJONOVA NARGIZAXON RAXIMJONOVNA**

**DAVOMLI VA UZOQQA CHO‘ZILGAN JINOYATLARNI  
KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Yu1803 bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” ta’lim Axborot ta’lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kamalova Dildora Gayratovna**  
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rustam Kabulov**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Achilov Izzat Tulkinovich**  
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi**  
**huzuridagi Sudyalar oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 4-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: 99871-233-66-36; faks: 99871-233-37-48; e-mail: [info@tsul.uz](mailto:info@tsul.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1406 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 21-iyul kuni tarqatildi.

(2025-yil 21-iyuldagi 49-raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A.Otajonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**I.B.Djuraev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

**D.B.Bazarova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda insoniyat tinchligi va xavfsizligi, shuningdek ekologiyaga qarshi davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar global xavfsizlikka jiddiy putur yetkazmoqda. Global uyushgan jinoyatchilik indeksiga ko‘ra dunyo aholisining 83 foizi qotillik, odam savdosi, firibgarlik, kiberjinoyatchilik singari jinoyatchilik darajasi yuqori bo‘lgan sharoitlarda yashaydi<sup>1</sup>, ularning ichida davomli va uzoqqa cho‘zilgan shaklda sodir etiladigan jinoyatlar 30-35 foizni tashkil etadi<sup>2</sup>. Bu esa jinoyatlarning transmilliy ko‘lamga ega bo‘lishi, latentligi ortishi, uzoq davom etgan yashirin jinoyatlarni isbotlashdagi murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu kabi holatlarning oldini olish, sud-tergov amaliyotida davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar institutini qo‘llashni rivojlantirish, davomli hamda uzoqqa cho‘zilgan jinoiy faoliyatni aniqlash uchun zamonaviy metodlar (pattern recognition, predictive policing)ni sun‘iy intellekt tizimlari orqali amaliyotga tatbiq etish, mintaqaviy hamda global darajada huquqiy, texnologik, institutsional va ijtimoiy chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jahonda uyushgan jinoyatchilik, kiberjinoyatchilik hamda terrorizm singari davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarning oldini olishda yangi va kompleks yondashuvlarni yaratish, davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarni to‘g‘ri baholash, ularni bir qancha jinoyatdan farqlash va umumiy kvalifikatsiya mezonlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarning dinamikasini barqarorlashtirish, davomli jinoyatlarning oqibatlari bir necha davlatlarda yuz berishi sababidan “funktional yurisdiksiya” huquqini joriy qilish, uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar natijasida yetkaziladigan zararni baholashga oid jinoiy zarar indeksi (Crime Harm Index)ni ishlab chiqish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan jinoyat huquqi rivojining bugungi tendensiyalari davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, sud-tergov amaliyotida yo‘l qo‘yilayotgan xatoliklar sabablarini tadqiq etish va ularni bartaraf etish, mazkur turdagi jinoyatlarning nazariy, amaliy va jinoyat-huquqiy muammolarini aniqlash hamda ularga ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarga huquqiy yondashuvni takomillashtirish va ularni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, tegishli jazo tayinlash, ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik masalalarini huquqiy tartibga solishga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, sud-huquq amaliyotida bunday jinoyatlarni yagona mezon asosida kvalifikatsiya qilishda davom etayotgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, normativ-huquqiy hujjatlarni izchil va aniq qo‘llashni ta‘minlash, hamda davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar bilan bog‘liq jinoyat-huquqiy nazariyalarni ilmiy asosda qayta ko‘rib chiqish jinoyat qonunchiligini qo‘llash va uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari etib belgilangan. Ushbu vazifalar jinoyat qonunining davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarga qarshi

<sup>1</sup> Global organized crime index. <https://globalinitiative.net/initiatives/ocindex/>

<sup>2</sup> Bureau of Justice Statistics. <https://ncvs.bjs.ojp.gov/year-to-year-comparison/crimeType>.

kurashish hamda qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabridagi O'RQ-561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabridagi PF-4850-son "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 11-sentabridagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmon va qarorlari hamda mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini muayyan darajada ta'minlashga mazkur dissertatsiya tadqiqoti xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Bugungi kunga qadar davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarni ayrim jihatlari milliy huquqshunos olimlardan M.X. Jiyanov, R. Kabulov, A.A. Otajonov, N.S. Salayev, D.G. Kamalova, B.B. Matlyubov, X.R. Ochilov, M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyev, O.A. Yusupdjanov, Z.Z. Shamsiddinov va boshqalar tomonidan o'rganilgan<sup>1</sup>.

Jumladan, M.X. Jiyanov bir qancha jinoyat sodir etish tushunchasi, belgilari, uning namoyon bo'lish shakllari va ularga o'xshab ketadigan murakkab yagona jinoyatning turlari, bir qancha jinoyatning shakllarini bir-biridan va murakkab yagona jinoyat turlaridan farqlash mezonlarini o'rgangan bo'lsa, D.G. Kamalova davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning tamom bo'lish vaqti, ularga tayyorgarlik ko'rish va suiqasd qilish masalalarini tadqiq etgan. Shuningdek, B.B. Matlyubov ham jinoyatlar majmui hamda murakkab yagona jinoyatning o'zaro farqli jihatlari tadqiq qilgan.

MDH davlatlari olimlaridan L.V. Inogomova-Xegay, A.P. Kozlov, V.N. Kudryavsev, N. Kulagin, O.V. Obodovskiy, A.M. Orazdurdiev A.M. Yakovlev, A.F. Zalov, D.S. Chikin va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, xorijiy olimlar Christina Peristeridou, Gabriel Hallevy, Kenneth S. Gallant, Hall Jerome va boshqalar mazkur mavzuning ayrim jihatlari yoritgan.

Shunday bo'lsa-da mazkur mualliflarning ilmiy ishlarida davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar bilan bog'liq normalar, ularni jinoyat-huquqiy tartibga olishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, bu boradagi jinoyat qonunchiligini

---

<sup>1</sup> Ushbu olimlar asarlarining to'liq ro'yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

rivojlantirish hamda uni amaliyotda qo'llash samaradorligini oshirish masalalari kompleks o'rganilmaganligi ushbu mavzuda ilmiy ish olib borish zaruratini keltirib chiqaradi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot ishining mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va uni qo'llashni takomillashtirish muammolari", "Sud-huquq tizimini takomillashtirish va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish kontekstida jazo tizimini islohot qilish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** jinoyat huquqi doirasida davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq masalalarni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish orqali muammolarni aniqlash, ilmiy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yagona jinoyatga oid ilmiy yondashuvlarni tizimli tadqiq etish va uning mohiyatini ochib beruvchi ta'rifni ishlab chiqish;

jinoyat huquqi doktrinasida davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning huquqiy tavsifini aniqlash;

xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasini tadqiq etish orqali davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

davomli jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil etish va ularga tavsif berish;

davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish muammolarini aniqlash;

JKda ayrim davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilarini tadqiq etish, boshlanish, tamom bo'lish vaqtlarini ilmiy tahlil qilish;

Jinoyat huquqi doktrinasidagi ayrim uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar klassifikatsiyasini tahlil qilish;

davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalarini tahlil etish natijalari yuzasidan milliy qonunchilikni takomillashtirishga oid xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning jinoyat-huquqiy tavsifi, mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga oid ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmet**ini davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarga oid normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti, yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotni amalga oshirishda qiyosiy-huquqiy, deduksiya va induksiya, taqqoslash, mantiqiy, analiz va sintez, ilmiy-nazariy, ilmiy-statistik, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

aybdor nomusga tegish vaqtida birin-ketin bir necha marta jinsiy aloqa qilgan yoki jinsiy ehtiyojini g‘ayritabiiy usulda qondirgan bo‘lsa va aybdorda muayyan bir shaxsga nisbatan mazkur aynan o‘xshash harakatlarni sodir etishga yagona qasd mavjudligi aniqlansa, bitta davomli jinoyat sifatida ko‘rilishi asoslangan;

16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish birin-ketin bir necha marta sodir etilgan bo‘lsa va aybdorda muayyan bir shaxsga nisbatan mazkur aynan o‘xshash harakatlarni sodir etishga yagona qasd mavjudligi aniqlansa, bitta davomli jinoyat sifatida ko‘rilishi asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirganlik uchun ota-onaga nisbatan ular zimmasidagi ota-onalik majburiyatini bajarmaganlik uchun ma‘muriy javobgarlik belgilanishi asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan va chet davlat hududida turgan bolaning sud belgilagan muddatda O‘zbekiston hududiga qaytarilishini ta‘minlamaganlik ota-onaning o‘z zimmasidagi majburiyatini bajarmasligi sifatida qaralishi sababli jinoiy javobgarlik keltirib chiqarishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

jinoyat huquqi nazariyasida yagona jinoyat tushunchasini ifodalashda “alohida jinoyat” atamasida qo‘llanilgan “alohida” so‘zi “o‘ziga mustaqil”, “bo‘lak” ma‘nolarini anglatishini inobatga olib, yagona jinoyatning ham oddiy, ham murakkab shakllari negizini yaxlitlik, tarkibiy qismlarning birlashganligi, ularning ajralmagan holda bir butunlik tashkil etishidan kelib chiqib, “alohida jinoyat” atamasini mazkur institutni mazmunan yoritishga, uni “bir qancha jinoyat” tushunchasidan farqlashga to‘liq mos kelmaydi deb hisoblab, “yagona jinoyat” atamasidan foydalanish taklifi asoslangan;

yagona jinoyat qonunda belgilangan bitta jinoyat tarkibining barcha zaruriy belgilariga to‘liq mos keladigan, yagona qasd va umumiy maqsad bilan sodir etiladigan bir yoki bir nechta ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikdan iborat ijtimoiy xavfli qilmish deb topilishi asoslangan;

davomli jinoyat yagona qasd bilan qamrab olingan va umumiy maqsadga yo‘naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi, vaqt oralig‘i bilan ajralib turuvchi bir xil yoki o‘xshash ikki yoxud undan ortiq qonunga xilof qilmishlardan iborat ijtimoiy xavfli qilmish deb topilishi asoslangan;

uzoqqa cho‘zilgan jinoyat qonunda yuklatilgan majburiyatning (yoki qonunda taqiqlangan faoliyatning) muntazam bajarilmasligi (yoki sodir etilishi) dan iborat bo‘lib, bir jinoyatning uzluksiz tarkibini tashkil qiladigan ijtimoiy xavfli qilmish deb topilishi asoslangan;

davomli jinoyatlarda ham, uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar kabi yuridik va faktik jihatdan tugallanish paytlari mavjud bo‘lib, jinoyat yuridik jihatdan tugallanganidan so‘ng ham faktik jihatdan tugallanganiga qadar sodir etilishida davom etishi va tabiiyki, bu tugallanish paytlari bir-biriga mos tushmasligi mumkinligi, shundan kelib chiqib davomli jinoyat uni tashkil etuvchi bir necha qilmishlarning oxirgisi sodir etilgan (faktik tugallangan) paytda tugallangan deb topilishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

uzoqqa cho‘zilgan jinoyat, sodir etilgan jinoiy harakat (harakatsizlik)da Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida yoki moddasining bir qismida nazarda tutilgan muayyan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan paytdan boshlanib, shaxsning o‘z ixtiyori bilan yoki unga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra jinoyatni to‘xtatishga qaratilgan harakatlari amalga oshirilganda, taqiqning o‘z kuchini yo‘qotishi yoki majburiyatning bekor qilinishi kabi hollarda tugallanishi asoslangan;

tergov va sud amaliyotida davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda kamchiliklar, tushunmovchiliklar mavjudligi bois, davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning ayrim masalalariga oid Oliy sud Plenum qarorini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish zarurligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo‘llash amaliyotiga asoslangan, 80 dan ortiq sud hujjatlari (hukmlar va ajrimlar), 296 dan ortiq nazariyotchi olimlar va amaliyotchi xodimlar, jumladan surishtiruvchi, tergovchi, sud, advokat va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma’lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, shuningdek olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo‘llash amaliyotida, jinoyat qonuni hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda jinoyat huquqi fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda, qonun ijodkorligi faoliyatida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda, jinoyat qonuni normalarini qo‘llash amaliyotida, shu jumladan, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudlar faoliyatida, oliy yuridik ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida, xususan, “Jinoyat huquqi”, “Jinoyat huquqi Umumiy qism qoidalarini qo‘llash” va “Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish” fanlaridan o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazishda, shuningdek o‘quv, uslubiy adabiyotlar tayyorlashda, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

aybdor nomusga tegish vaqtida birin-ketin bir necha marta jinsiy aloqa qilgan yoki jinsiy ehtiyojini g‘ayritabiyy usulda qondirgan bo‘lsa muayyan shaxsga nisbatan mazkur harakatlarni sodir etishga yagona qasd mavjudligi aniqlanganligi sababli qilmish bitta davomli jinoyat hisoblanishi lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi 30-sonli “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilganligi

munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ma‘muriy huquqbuzarlik hamda jinoyat ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qarorining 5-bandi 20-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 21-yanvardagi 01-3-12-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi nomusga tegish va jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlarini davomli jinoyat sifatida to‘g‘ri baholashga xizmat qilgan;

16 yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish birin-ketin bir necha marta sodir etilgan bo‘lsa, aybdorda muayyan shaxsga nisbatan mazkur harakatlarni sodir etishga yagona qasd mavjudligi aniqlanganligi sababli qilmish bitta davomli jinoyat sifatida baholanishi lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi 30-sonli “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ma‘muriy huquqbuzarlik hamda jinoyat ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qarorining 5-bandi 22-xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 21-yanvardagi 01-3-12-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish jinoyatlarini davomli jinoyat sifatida to‘g‘ri baholashga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan bolani chet davlat hududida nazoratsiz qoldirganlik ota-onaga nisbatan zimmasidagi ota-onalik majburiyatini bajarmaganlik hisoblanishi sababli bunday uzoqqa cho‘zilgan qilmish uchun ma‘muriy javobgarlik belgilanishi lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2023-yil 15-martdagi O‘RQ-823-son Qonunining 3-moddasini ikkinchi qismining 2-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 23-dekabrda 3/08-260-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan bolalarning ota-onasi tomonidan chet davlat hududida nazoratsiz qoldirilishi jinoyati uchun jinoiy javobgarlikni differentsiatsiya qilishga xizmat qilgan;

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega bo‘lgan va chet davlat hududida turgan bolaning sud belgilagan muddatda O‘zbekiston hududiga qaytarilishini ta‘minlamaganlik ota-onaning o‘z zimmasidagi majburiyatini bajarmasligi sifatida qaralishi sababli jinoiy javobgarlik keltirib chiqarishi lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 2023-yil 15-martdagi O‘RQ-823-son Qonunining 1-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 23-dekabrda 3/08-260-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi O‘zbekiston Respublikasi

fuqaroligiga ega bo'lgan bolalarning ota-onasi tomonidan chet davlat hududida ma'muriy javobgarlik qo'llanilganidan keyin ham nazoratsiz qoldirganlik jinoyatiga to'g'ri huquqiy baho berish va adolatli jazo tayinlashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, 5 ta ilmiy maqola (2 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, sakkizta paragrafni qamrab olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 156 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqot ishining **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliliigi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar tushunchasining nazariy asoslari va ularning jinoyat-huquqiy tavsifi”** nomli birinchi bobi jinoyat huquqi doktrinasida davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning o'rni va ahamiyati, fanda yagona jinoyat, davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatga oid mavjud konseptual yondashuvlar, davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar o'rtasidagi farq, mazkur institutning ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida aks etish shakli, o'xshash va farqli jihatlariga bag'ishlangan.

Yagona jinoyatni o'rganishda uning negizida yaxlitlik, tarkibiy qismlarning birlashganligi va ajralmasligi mavjudligidan kelib chiqib dissertant tomonidan “yagona jinoyat”, “alohida jinoyat”, “yagona harakat” kabi terminlar mohiyati tadqiq etilib, yakuniy xulosa sifatida “yagona jinoyat” terminini mazkur institutni mazmunan yoritishga, uni “bir qancha jinoyat” tushunchasidan farqlashga to'liq va tugal mos keladi, degan fikrga kelingan. Yuridik adabiyotlarda olimlar tomonidan mazkur tushunchaga nisbatan turlicha atamalar qo'llanilgan va haligacha yagona yechimga erishilmagan. Ushbu kategoriyani o'rganishda milliy olimlar M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyev va X. Ochilovlar “alohida jinoyat” terminidan foydalangan bo'lsa, M.X.Jiyanov “yagona jinoyat” atamasini qo'llaydi. Xorijiy olimlaridan A.M. Orazdurdiyev, A.A. Ilidjev “yagona jinoyat” atamasidan foydalangan.

Dissertant jinoyat huquqi doktrinasida yagona jinoyatning oddiy va murakkab turlarini qayd etib, davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar murakkab yagona

jinoyatning turlari degan xulosaga kelgan. Bir qator olimlarning ilmiy qarashlarini tahlil qilish asosida dissertant murakkab yagona jinoyatning 1) murakkab yagona jinoyat bir yoki bir nechta o‘zaro bog‘liq harakat yoki harakatsizlikdan iborat bo‘lib, yagona jinoiy natijaga olib kelishi; 2) ushbu harakatlar yagona ayb shakli bilan amalga oshirilishi, qasddan sodir etilgan hollarda esa yagona maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi; 3) yagona jinoyat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, qonunchilikda mustaqil jinoyat sifatida ko‘rib chiqilishi; 4) yagona jinoyat jinoyat qonunchiligi doirasida bitta jinoyat tarkibi sifatida belgilanishi kabi o‘ziga xos belgilarini aniqlagan.

Shuningdek, tadqiqotchi davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar kategoriyalarini tahlil qilishda bir qator olimlarning (M.X. Jiyanov, D.G. Kamalova, B.B. Matlyubov, M.X. Rustamboyev, M. Usmonaliyev, X.R. Ochilov, O.A. Yusupdjanov, Z.Z. Shamsiddinov, L.V. Inogomova-Xegay, A.P. Kozlov, A.F. Zalov, V.N. Kudryavsev, N. Kulagin, O.V. Obodovskiy, A.M. Orazdurdiev, A.M. Yakovlev, D.S. Chikin va boshqalar) qarashlarini o‘rganib, ularning mazkur huquqiy kategoriyalarga bergan ta’riflari mukammal emasligini, barcha huquqiy belgilarni qamrab olmaganligini, farqli jihatlarini o‘zida namoyon etmaganligini aniqlagan va mazkur tushunchalarga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan:

yagona jinoyat – qonunda belgilangan bitta jinoyat tarkibining barcha zaruriy belgilariga to‘liq mos keladigan, yagona qasd va umumiy maqsad bilan sodir etiladigan bir yoki bir nechta ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlikdan iborat ijtimoiy xavfli qilmish;

uzoqqa cho‘zilgan jinoyat – qonunda yuklatilgan majburiyatning (yoki qonunda taqiqlangan faoliyatning) muntazam bajarilmasligi (yoki sodir etilishi) dan iborat bo‘lib, bir jinoyatning uzluksiz tarkibini tashkil qiladigan ijtimoiy xavfli qilmish;

davomli jinoyat deb yagona qasd bilan qamrab olingan va umumiy maqsadga yo‘naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil qiluvchi, vaqt oralig‘i bilan ajralib turuvchi bir xil yoki o‘xshash ikki yoxud undan ortiq qonunga xilof qilmishlardan iborat ijtimoiy xavfli qilmishga aytiladi. Davomli jinoyat har biri mustaqil ravishda jinoyat tarkibi belgilariga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan qilmishlardan (masalan, bir necha marta pora olishda) va har biri yoki ba’zilari mustaqil ravishda jinoyat hisoblanmaydigan, lekin birgalikda bitta jinoyatni tashkil etadigan qilmishlardan (masalan, o‘zganing mulkini talon-toroj qilishda, agar o‘g‘irlangan mol-mulkning qiymatidan kelib chiqib, ayrimlari ma’muriy huquqbuzarlik bo‘lsa) iborat bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotchi yagona jinoyat, davomli jinoyat va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini ilmiy-nazariy jihatdan ko‘rib chiqib farqli mezonlarini ishlab chiqqan. Dissertant tomonidan uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarga oid ilmiy yondashuvlarni qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan holda uning quyidagi asosiy xususiyatlari aniqlangan:

jinoyatning obyektiv tomoni uzoq va davomiy harakat yoki harakatsizlik bilan tavsiflanishi;

ushbu qilmish qonun bilan taqiqlangan faoliyatni uzluksiz bajarishda yoki qonun bilan belgilangan majburiyatni bajarmaganlikda yoki lozim darajada bajarmaganlikda ifodalanishi;

uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlarning shaxsning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan yoki bo‘lmagan holatda, shuningdek, taqiqni yoki majburiyatni bajarish zaruratini yo‘qolishi munosabati bilan tugallanishi kabi huquqiy belgilarini ko‘rsatgan.

Tadqiqotchi davomli jinoyatning huquqiy tabiatiga oid bo‘lgan qarashlarni tahlil qilgan holda ikkita asosiy yondashuv mavjudligini aniqlagan. Birinchi yondashuvga ko‘ra davomli jinoyat yagona murakkab jinoyat sifatida baholanib, bunda bir nechta harakat yoki harakatsizliklar yagona jinoyat tarkibini tashkil etadi (M.X. Rustambayev, D.G. Kamalova, Z.Z. Shamsiddinov, A.M. Ryshelyuk, Z.A. Neznamova). Ikkinchi yondashuv davomli jinoyatni bir nechta alohida jinoyatlar yig‘indisi sifatida ko‘radi (A.F. Kistyakovskiy, M.D. Sergeevskiy). Dissertant tomonidan birinchi yondashuv qo‘llab-quvvatlanadi va xulosa ilmiy asoslantiriladi. Aksincha fikrlar, ya’ni davomli jinoyatni bir nechta jinoyatlarning majmui deb hisoblash, murakkab yagona jinoyatlarni boshqa jinoyatlardan farqlash mezonlarini aniqlashda qiyinchiliklar tug‘diradi va huquqiy amaliyotda noaniqliklarga olib kelishi mumkin.

Ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligini o‘rganish asosida roman-german huquqiy oilasiga mansub davlatlar (Italiya, Ruminiya, Xorvatiya, Germaniya, Shvesariya, Fransiya, Ispaniya, Moldova, Qozog‘iston, Turkmaniston, Ozarbayjon)ning jinoyat qonunchiligida davomli va uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar tavsifi aks etgan. Anglo-sakson huquq oilasidagi davlatlar (AQSH, Angliya, Niderlandiya, Gretsiya) esa bu masalani doktrina va amaliyotga qoldirgan.

Tadqiqot ishining **“Davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobi davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlariga bag‘ishlanib, unda ilmiy va amaliy jihatlar bilan bir qatorda davomli jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilarini huquqni qo‘llash amaliyotidagi ahamiyati, JKdagi ayrim davomli jinoyatlar, jumladan o‘zgarlar mulkini talon-toroj qilish, jinsiy zo‘ravonlik, poraxo‘rlik kabilarni kvalifikatsiya qilish masalalari atroflicha tahlil qilingan. Dissertant tomonidan davomli jinoyatga oid ilmiy-nazariy manbalar, sud materiallarini tahlil qilingan holda, ularning qonunga xilof qilmishlar yig‘indisidan iboratligi va mazkur qilmishlarning har biri mustaqil jinoiy yoki ma’muriy yoki intizomiy huquqbuzarlik tarkibini tashkil qilishi mumkinligi va ularning yig‘indisi yagona davomli jinoyat sifatida baholanishi lozim, degan xulosaga kelingan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi JK 32-moddasi 3-qismidagi “... jinoiy qilmishlardan iborat ...” jumlasidagi *“jinoiy”* so‘zini “qonunga xilof” so‘zlari bilan almashtirish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Dissertant davomli jinoyatlarning jinoiy-huquqiy tavsifini tahlil qilgan holda, uni jinoyat tarkibi belgilariga ko‘ra farqlagan. Jumladan:

obyektiv belgilari:

1) ikki yoki undan ortiq mustaqil harakatlarning mavjudligi; 2) davomli jinoyatni tashkil etuvchi qilmishlarning har biri, yo jinoiy, yoki ma’muriy, yoxud intizomiy huquqbuzarlik hisoblanishi (masalan, jinoiy javobgarlikni keltirib

chiqaruvchi o'g'irliklar mayda o'g'irlikni tashkil qilishi) va bunday huquqbuzarliklar birgalikda (butun holda) jinoiy qilmishni tashkil qilishi; 3) davomli jinoyatni tashkil etuvchi barcha amalga oshirilgan harakatlar yuridik jihatdan bir xilligi, 4) bir xil harakatlar o'rtasida vaqt oralig'ining mavjudligi, 5) tajovuz obyektining bir xilligi, 6) yagona ijtimoiy xavfli oqibatning mavjudligi;

subyektiv belgilari:

subyekt: jinoyat qonunchiligida belgilangan muayyan yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxs;

subyektiv tomon: 1) yagona qasd; 2) umumiy maqsad.

Jinoyat huquqi doktrinasida davomli jinoyatning subyektiv tomonini tavsiflashda "umumiy maqsad" o'rniga "yagona jinoiy natija" atamasi qo'llanilgan yondashuv mavjud va ushbu yondashuvga ko'ra, subyektning jinoiy harakatlarida yagona, o'zgarmas maqsad – jinoiy natijaga erishish – mavjud bo'lib, bu maqsad jinoyatning barcha epizodlarini birlashtiradi. Biroq, bu nuqtai nazar to'liq qabul qilinmaydi, chunki barcha jinoyatlar jinoiy natija bilan tugallanmaydi. Tayyorgarlik bosqichida to'xtatilgan jinoyatlar, shuningdek, natijaga olib kelmaydigan, lekin jinoiy tarkibni tashkil etuvchi boshqa harakatlar buni tasdiqlaydi. Demak, "umumiy maqsad" tushunchasi "yagona jinoiy natija" dan kengroq bo'lib, u nafaqat jinoiy natijani, balki subyektning barcha harakatlarini birlashtiruvchi yagona va o'zgarmas qasdni ham o'z ichiga oladi. Shunga binoan dissertant "umumiy maqsad" tushunchasi davomli jinoyatning subyektiv belgisiga ko'proq mos kelishini tahlil qiladi.

Tadqiqotchi davomli jinoyat *sodir etish payti* deganda, jinoyat tarkibini tashkil etuvchi birinchi qilmishni sodir etish payti emas, balki jinoiy faoliyatni amalda tugatish payti tushunilishi lozimligi xususida fikr bildirgan.

JKning 13-moddasi talablaridan kelib chiqib davomli jinoyatlarni sodir etish davrida yangi qonun qabul qilingan hollarda sodir etilgan davomli jinoyatga nisbatan eski yoki yangi qonunni qo'llash masalasida dissertant quyidagilarni hisobga olish kerak deb hisoblaydi: qilmishning ko'rsatilgan kungacha sodir etilgan "qism"iga nisbatan o'z kuchini yo'qotgan qonunning amal qilishi tatbiq etiladi, yangi qonun esa faqat qonunning vaqt bo'yicha orqaga qaytish kuchi to'g'risidagi qoidaga muvofiq qo'llanilishi mumkin. Qilmishning yangi qonun kuchga kirgandan keyin sodir etilgan "qism"iga nisbatan qonunning vaqt bo'yicha bevosita ta'siri o'rinlidir. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, yagona ijtimoiy xavfli qilmishning "qismlari"ning har biriga nisbatan amaldagi qonunni qo'llash mumkin emas. Boshqacha aytganda, qonunni qo'llash masalasi butun qilmishga nisbatan hal qilinishi kerak.

Qonunni "tanlash" to'g'risidagi qaror inson (aybdor shaxs) huquq va erkinliklarining asossiz cheklanishiga yo'l qo'ymaslik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda qabul qilinishi kerakligi sababli, ko'rib chiqilayotgan vaziyatda aybdor uchun qulayroq bo'lgan qonun qo'llanilishi kerak. Jinoiy javobgarlik to'g'risidagi qonun, bir tomondan qisman jinoiy javobgarlikni yengillashtirsa yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilasa, boshqa tomondan esa qisman jinoiy javobgarlikni kuchaytirsas yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yomonlashtirsa, bunday qonun faqat jinoiy javobgarlikni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini

boshqacha tarzda yaxshilaydigan qismidagina orqaga qaytish kuchiga ega bo'ladi. Agar yangi qonun bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi JKning Maxsus qismi moddasining dispozitsiyasini (modda qismining dispozitsiyasini) va sanksiyasini o'zgartirsa va buning natijasida bunday qonun haqida umuman olganda u jinoyat harakatining boshlanish vaqtida amal qilgan qonunga nisbatan yumshoqroq yoki qattiqroq ekanligini aytish mumkin bo'lmasa, u holda davomli jinoyatga nisbatan bunday yangi qonunni qo'llash masalasini hal qilishda O'zbekiston Respublikasi JK 13-moddasi qoidalarini asos qilib olish mumkin, ya'ni qilmishning jinoyatligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonunning faqat shaxsning ahvolini yaxshilaydigan qismigina qo'llanilishi lozim.

Muallif davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning umumiy muammolarini ilmiy tahlil qilgan. O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra respondentlarning 40 foizi davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning umumiy muammolari sifatida sud-tergov organlari tomonidan mazkur turdagi qilmishlarni takroran jinoyat sodir etishdan farqlashda xato va kamchililar kuzatilayotganligini, natijada jinoyatlar noto'g'ri kvalifikatsiya qilinib, bu esa o'z o'rnida shaxsga asossiz jazo tayinlashga sabab bo'layotganligini qayd etgan. Shu o'rinda dissertant yechim sifatida quyidagi xulosani ilgari surgan:

“O'xshash jinoyatlar (takroran sodir etilgan jinoyatlar)ni kvalifikatsiya qilishda ayblanuvchining har bir qilmishga alohida yoki barcha qilmishlarga yagona qasd bilan yondashganligi borasida shubha tug'ilsa, harakatlar ikki xil tarzda: davomli jinoyat sifatida ham, takroriy jinoyat sifatida ham kvalifikatsiya qilinishi lozim. Bunday hollarda, ikkala kvalifikatsiya varianti bo'yicha nazarda tutilgan jazolar taqqoslanib, Konstitutsiyaning 20-moddasi 4-qismiga muvofiq, ya'ni “inson bilan davlat organlari o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson manfaatlariga mos ravishda talqin qilinishi” tamoyiliga asosan, yengilroq jazo qo'llanilishi kerak”. Bu esa o'z navbatida ayblanuvchining manfaatlarini himoya qilish, jazoning adolatli bo'lishini ta'minlash va Konstitutsiyaning inson manfaatlarini ustuvor deb belgilagan tamoyiliga rioya etish imkonini beradi.

Shuningdek, dissertant ilmiy-nazariy tahlillar orqali davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda shaxsning qasdi aniq bo'lsa, qilmishni qasdga qarab kvalifikatsiya qilish, agar konkretlashmagan qasd bo'lsa, faktik oqibatlariga asoslanish kerakligini aniqlagan.

Davomli jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi yana bir muammoldan biri, shubhasiz, *davomli jinoyatlarning tamom bo'lish vaqtini* aniqlash sanaladi. Dissertantga ko'ra davomli jinoyatni sodir etish vaqtini aniqlashda huquqni qo'llash amaliyotida yuridik fiksiya “qo'llaniladi”, uning yordamida jinoyatning obyektiv tomonini amalga oshirish vaqti – davomli jinoyat tarkibiga kiruvchi so'nggi harakat (harakatsizlik) amalga oshirilgan vaqtga qisqaradi. Bunday yondashuv davomli jinoyatni tashkil etuvchi harakat (harakatsizlik) lar o'z-o'zidan yuridik ahamiyatga ega bo'lmasligidan, ular birlikda baholanishidan kelib chiqib to'liq asosli deb hisoblanadi. U shu bois davomli jinoyatning yuridik (huquqiy) vaqtini aniqlash faqat

davomli jinoyatning umumiy yakunlanish (ixtiyoriy yoki majburiy) vaqti bilan belgilanishi mumkin, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi ishtirokchilikda sodir etilgan davomli jinoyatlarni tahlil qilib agar davomli jinoyatni amalga oshirish bo'yicha ishtirokchilarda oldindan kelishuv mavjud bo'lsa, ishtirokchilarni o'zlari qatnashgan jinoiy harakatlargagina emas, balki davomli jinoyatning barcha epizodlari uchun javobgarlikka tortish lozim. Davomli jinoyatni amalga oshirishga keyin qo'shilgan ishtirokchi mazkur jinoyatda o'z aybi uchun javobgar bo'lishi kerak (ayb uchun javobgarlik prinsipi bo'yicha), ammo uning harakatlari kvalifikatsiyasi muhim xususiyatga ega: qo'shilgan ishtirokchining aybloviga u davomli jinoyatga qo'shilgunga qadar amalga oshirgan harakatlar kiritilmasligi kerak, chunki bu vaqtgacha u jinoyatga qo'shilmagan va boshqa ishtirokchilar bilan kelishuvga ega bo'lmagan; qo'shilgan ishtirokchiga "oldindan til biriktirib" malaka belgisini qo'llab bo'lmaydi, deb hisoblashini qayd etgan.

Shuningdek, muallif aqliy va (yoki) jismoniy yordamni davomli jinoyatning alohida epizodlarini sodir etishda kvalifikatsiya qilishda, yordamchining qasdi boshqa ishtirokchilarning jinoiy harakatlarining davomli xarakterini qamrab olmasa, u faqat alohida jinoyatda yordami uchun javobgar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Barcha davomli jinoyatni amalga oshirgan yordamchi deb hisoblash uchun, uning davomli jinoyatni qo'llab-quvvatlash qasdi bo'lishi kerak. Bunda, yordamchi boshqa ishtirokchilar tomonidan davomli jinoyat sodir etilayotganini anglashi va alohida g'ayriqonuniy harakatga aqliy yoki jismoniy ko'mak berish orqali u davomli jinoyatning sodir etilishiga (uning keyingi amalga oshirilishiga) hissa qo'shayotganini tushunishi lozimligini e'tirof etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, amaldagi qonunchilikda davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash masalasi yetarlicha aniq belgilanmagan. Bu esa huquqni qo'llash amaliyotida turli xil talqinlarga, chalkashliklarga va adolatsiz qarorlarga olib kelmoqda. Shu bois, o'tkazilgan ilmiy tahlillar asosida, davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar bo'yicha javobgarlikka tortish muddatlarini hisoblash masalasini qonunchilikda aniq belgilab qo'yish zarur degan xulosaga kelindi. Bunda dissertant tomonidan davomli va uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarga nisbatan jinoiy javobgarlikka tortish muddatlari o'tishining boshlanishi ularning faktik tugallanish vaqtidan kelib chiqishini belgilash taklif etildi. Mazkur qoida, bir tomondan, jinoyat sodir etgan shaxsning javobgarlikdan qochishiga yo'l qo'ymas, ikkinchi tomondan, unga nisbatan adolatli jazo tayinlanishini ta'minlaydi.

Dissertant JK Maxsus qismida belgilangan ayrim davomli jinoyatlar, xususan, davomli noqonuniy giyohvand moddalar aylanishi sohasidagi jinoyatlar, davomli talon-toroj, davomli jinsiy tajovuz, davomli poraxo'rlik kabi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi muammolar, sud amaliyotida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar, ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganib, mazkur turdagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Dissertantning ilmiy tahlillariga ko'ra yagona davomli va takroran jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarining o'zaro farqini quyidagilarda ko'rish mumkin:

agar jinoyat bir necha harakatdan iborat bo'lib, ularning barchasi bitta qasd bilan sodir etilgan bo'lsa, bu yagona davomli jinoyat hisoblanadi;

jinsiy tajovuz holatida vaqt omili jinoyatning yagona qasdni ifodalovchi muhim belgisi sifatida asosiy rol o'ynaydi;

jinsiy aloqa qilish maqsadida zo'rlik ishlatish jinoyatga suiqasd hisoblanadi; obyektiv tomonning to'liq bajarilishi va keyinchalik aybdorning g'ayriqonuniy faoliyatidan jinsiy aloqaning vaqti-vaqti bilan yo'qolishi jinoyatning tugaganligini anglatmaydi. Agar jinsiy aloqalar uzilmasa (hatto zo'rlik tugasa ham), jinoyatning tugallanganligi haqida gapirish mumkin emas;

bir nechta jinsiy aloqalarni yagona nomusga tegish jinoyatiga birlashtiruvchi asosiy belgi – bu jabrlanuvchining o'jiz holati, chunki ilgari qo'llanilgan zo'rlik u bilan davomli jinsiy aloqani hech qanday to'siqsiz amalga oshirish imkonini beradi;

nomusga tegish jinoyatida jabrlanuvchining qarshiligini yengish zarurati har doim ham shaxsning harakatlarida mustaqil tarkib mavjudligini anglatmaydi.

Dissertatsiyada davomli talon-toroj bilan bog'liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish xususida so'z borib amaliy va nazariy tahlillar asosida davomli talon-torojni baholashda talon-toroj qilinayotgan manbaning yagonaligi hududiy va huquqiy mezonlar asosida aniqlanishi mumkinligi ta'kidlanadi. Hududiy mezon bir joydan o'g'irlikni nazarda tutsa, huquqiy mezon o'g'irlangan mulkning ayni bir shaxsga tegishlilikni anglatadi.

Dissertantga ko'ra “manbaning yagonaligi” mezoni barcha davomli talon-toroj shakllari uchun majburiy emas. Firibgarlik jinoyatlarida bu mezon qo'shimcha belgi bo'lishi mumkin.

**Dissertatsiyaning “Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari”** nomli uchinchi bobida uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilari, kvalifikatsiya qilish muammolari, JK Maxsus qismida belgilangan ayrim uzoqqa cho'zilgan jinoyat turlarini tahlil etish orqali, mazkur jinoyatlarning huquqiy mohiyatini chuqurroq anglash, qonunchilikni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyotini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy yondashuv ishlab chiqish maqsad qilingan.

